



# International Congress on Biological, Physical And Chemical Studies

*International Congress on Biological, Physical And Chemical Studies - is an international conference platform under open access policy. The conference is led by international expert members who take an objective approach to peer review, ensuring each research paper is reviewed, edited by authors and evaluated on its own scholarly merits and research integration. Publishing and joining on the proceeding of the International Congress on Biological, Physical And Chemical Studies will ensure publishing experience and indexing possibilities on various global indexing.*

## **Virusli Gepatit A Kasalligi Aholi Orasida Tarqalish Differensial Taqqoslash**

**Sohibova Maftuna**

Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti, magistratura talabasi

### **Annotatsiya**

Ushbu maqola aholi orasida virusli hepatit A kasalligi etiologiyasi, epidemiologiyasi va tarqalish xususiyatlariga bag'ishlangan. Virusli hepatit A kasalligi bugun butun dunyo hamjamiyatini tashvishga solayotgan muammolardan biridir. Bu kasallikning kelajagimiz davomchisi bo'lgan bolalarda keng tarqalayotganligi ushbu kasallikni nafaqat davolash usullari balki, keltirib chiqaruvchi sabalarni ham chuqur o'rganish kerakligini ko'rsatib turibdi. Ushbu kasallik bilan kasallanish bugungi kunda nafaqat O'zbekistonda, balki butun dunyoda ortib bormoqda. Har yili kasallik faqatgina kichik yoshli insonlarda uchrabgina qolmay yoshlar o'rtasida ham sezilarli ravishda o'sishi kuzatilmoqda. Mamlakatimizda Sog'liqni saqlash sohasini raqamlashtirish va axborot tizimlari yagona kompleksini joriy etish, boshqaruv jarayonidagi ortiqcha tartib-tamoyillarni qisqartirish, aholiga xizmatlar ko'rsatish sifatini oshirish, tibbiyot xodimlarining ish samaradorligini ta'minlash, shuningdek, ushbu yo'nalishda qabul qilingan raqamli transformatsiya qilish dasturlarini samarali tadbiriq etishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu borada 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasining yettita ustuvor yo'nalishiga muvofiq aholiga tibbiy xizmat ko'rsatish darajasini yangi bosqichga ko'tarish ustuvor vazifa hisoblanadi. Ushbu strategida Yuqumli kasalliklar shu jumladan virusli hepatit kasalliklariga ham alohida urg'u beriladi. Chunki virusli hepatit A hozirda keng tarqalib borayotgan kasalliklardan biridir.

**Kalit so'zlar:** Gepatovirus, immunizatsiya, immunitet, Bayes usuli, Ehtimollik darajasi, Samaradorlik indeksi.

### **KIRISH**

Virusli hepatit kasalliklari butun dunyo bo'ylab sog'liqni saqlash tizimidagi muammodir. Virusli hepatit Jigar hujayralarining hepatovirus A tufayli zararlanishi natijasida kelib chiqadi. Viruslar hepatit A yuqumli kasallik bo'lib, jigar to'qimalariga zarar etkazadi. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, bugungi kunga qadar respublikamizda 9507 nafar bola hepatit A bilan kasallangan. (O'z. Res tibbiy statistika qo'mitasi.) Bu kasallikka chalinish darajalari yildan yilga oshib bormoqda. Bu esa bizdan bu kasallikni keltirib chiqaruvchilarini chuqur o'rganishni va kasallikning tarqalishidagi o'ziga xos xususiyatlariga alohida e'tibor berishimiz kerakligini anglatadi. Xususan, o'tgan yil davomida

respublika bo'yicha jami 665 767 nafar bola virusli gepatit A ga bilan kasallandi. O'tgan 12 oy davomida respublika bo'yicha jami 365 167 nafar bola virusli gepatit A ga qarshi emlandi. Adabiyotlar shuni ko'rsatadiki, dunyo aholisining deyarli uchdan bir qismi yod tanqisligi hududida yashaydi.

Respublikamiz bo'ylab Andijon, Buxoro, Namangan, Surxondaryo, Samarqand, Farg'ona viloyatlari hamda Qoraqalpog'iston Respublikasida infeksiyalar sonining ko'payishi kuzatilmoqda. Gepatit A ga qarshi emlash gepatit A infeksiyasining 94-98 foizini oldini oladi va emlashdan keyin jiddiy asoratlar paydo bo'lmaydi.

Jahon sog'liqni saqlash tashkilotining tavsiyalariga ko'ra, ushbu vaktinaning xavfsizligi va sifatini kafolatlaydigan sertifikatlar mavjud, emlash bir marta amalga oshiriladi, takroriy emlash talab qilinmaydi; 18 oylikdan 14 yoshgacha bo'lgan bolalar, birinchi navbatda, virusli gepatit A ga qarshi emlanadi. Virusli gepatit A ga qarshi emlanganidan keyin immunitet tarangligi 15 yilgacha davom etadi. Monografiyasida keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra, morfologik xususiyatlar va jismoniy rivojlanganlik masalasi bo'yicha bir qator ilmiy izlanishlar (B.A.Nikityuk, I.A.Arshavskiy, S.S.Solexo'jayev va boshqalar) bo'lishiga qaramasdan bu muammo oxirigacha o'z yechimini topmagan deb tariflagan. O'zbekiston sharoitida ko'p olimlar Virusli gepatitlar ustida uzoq yillar izlanishlar olib borgan (Ak.Y.T.To'raqulov, Ak.K.A.Zufarov, R.Islombekov)lar. Shuningdek, ko'proq 18 oylikdan yangi tug'ilgan va 14 yoshgacha tarbiya yoshidagi bolalarda qisman o'rganilgan (S.S.Solexo'jayev). Yurtimizda maktab o'quvchilarining antropometrik parametrlar yoshi, individual va jinsi xususiyatlari D.B. Mirzakarimova o'rganildi. Tibbiyot fanlari nomzodi ilmiy darajasi uchun (2009). Olingan ma'lumotlardan D.B.Mirzakarimova foydalanib, maktabgacha yoshdagi bolalarining jismoniy rivojlanishining o'sish sur'atlarini baholadi. Farg'ona viloyatida ayniqsa, So'x va Rishton, Oltiariq, Bag'dod tumanlari epidemik zona xisoblanadi. Bu esa shu mintaqada yashovchi yoshlarning antropometrik ko'rsatkichlariga ta'sir o'tkazadi. Yuqoridagi keltirilgan ma'lumotlarga asoslangan holda Farg'ona vodiysida maktab yoshidagi bolalarning antropometrik ko'rsatkichlarini aniqlash, bemorlarning asosiy xususiyatlari va bu hududlarning alohida jihatlarini o'rganish kasallikka qarshi kurash qonuniyatlarini kashf etadi.

Bugun raqamlarga etibor beradigan bo'lsak, gepatit B va gepatit C ham umrbod infeksiyaga olib kelishi mumkin. JSST hisob-kitoblariga ko'ra, 2019 yilda 1,1 million o'lim ushbu infeksiyalar va ularning oqibatlari, jumladan, jigar saratoni, siroz va surunkali virusli gepatit tufayli yuzaga kelgan boshqa holatlar tufayli sodir bo'lgan.

2016 yilda Jahon sog'liqni saqlash assambleyasi virusli gepatit bo'yicha Global sog'liqni saqlash sektori strategiyasini (GHSS) qabul qildi. GHSS virusli gepatit B va C infeksiyasini sog'liqni saqlash muammosi sifatida yo'q qilishga chaqirdi (2015 yilga nisbatan 2030 yilga kelib kasallanishning 90% ga (HBV uchun 95% va HCV uchun 80%) va o'limning 65% ga qisqarishi sifatida belgilangan asosiy chiziq). Hozirgi vaqtda keng ko'lamli mamlakatlar virusli gepatitning milliy rejalarini ishlab chiqdilar va bir qator davlatlar Jahon sog'liqni saqlash tashkilotidan (JSST) virusli gepatitni yo'q qilishni o'lchashning global mezonlarini va uni bartaraf etishning standartlashtirilgan jarayonini belgilash bo'yicha ko'rsatmalar so'rashdi.

Ushbu kasallik bilan kasallanish darajasini aniqlash uchun tadqiqot olib borildi. Tadqiqotning birinchi bosqichida Farg'ona viloyati Rishton tumani aholisining virusli gepatit bilan kasallanish 3 yil ko'rsatkichlari absolyut miqdorlarda ifodalandi.

Virusli gepatit A bilan kasallangan bolalarning barcha ko'rsatkichlarini aniqlash uchun Farg'ona viloyati Rishton tumani yuqumli kasalliklar bo'limida tekshirishlar olib borildi. Shuningdek kasallikning havfli guruhlari: bemorlarning yaqinlari boxcha va maktab guruhlari ham kuzatish va tekshirishlar olib borildi. Ushbu kasallikka chalingan bemorlarning alohida xususiyatlari antropometrik ko'rsatkichlari, immun xususiyatlari va kasallik tarixlari o'rganildi. Bundan tashqari bemor yashash muhiti va salomatligiga ta'sir etishi mumkin bo'lgan omillar ham o'rganildi. Virusli gepatit A bilan kasallangan 2 yoshdan 20 yoshgacha bolalarning antropometrik

ma'lumotlari olindi. O'rganishlar davomida jami 50 nafar o'g'il va qiz bolalar antropometrik ma'lumotlari tana og'irligi, bo'y uzunligi, bosh aylanasi, ko'krak aylanasi o'lchanadi. Ushbu tekshiruvlar 2023 yil sentabr oyidan boshlandi.

Olib borilgan tadqiqot ishidan kelib chiqqan xolda quyidagicha xulosa qilishimiz mumkin.

### **Birinchidan:**

Farg'ona viloyati Aholining Virusli Gepatit A bilan kasallanishi o'rganilganda (Rishton tumani misolida) Virusli hepatitning bu turi umumiy virusli hepatit turlari orasida eng ko'p birgina 2024 yilni misol qilib keltiradigan bo'lsak o'tgan 9 oy davomida umumiy virusli hepatit turlari orasida (593ta umumiy kasallanish) eng ko'p kasallanish holatlari 98,6% virusli hepatit A ga to'g'ri keladi. (585ta)

### **Ikkinchidan**

Ushbu kasallik bilan kasallanish yildan yilga oshib bormoqda. Aniq faktlar keltiradigan bo'lsak, 2022-yilda umumiy 275ta 2023-yilda 596ta va birgina 2024-yilning 9 oylik ko'rsatkichlariga ko'ra 585ta kasallanish holatlari qayd etilmoqda. (2-ilova)

### **Uchinchidan**

Dastlabki 2022-yilda kasallanish holatlari o'g'il bolalarda ko'proq qayd etilgan bo'lsa (umumiy 175 o'g'il bolalarda 95 va qiz bolalarda 80ta) keyingi 2023-yil (umumiy 596 o'g'il bolalarda 265 va qiz bolalar 331) va 2024-yil (umumiy 585 o'g'il bolalarda 260 va qiz bolalar 325)larda qizlar orasida kasallanish holatlari ko'paygan.

### **To'rtinchidan**

Kasallikning mavsumiylik xususiyatiga holatlariga e'tibor qaratadigan bo'lsak, eng ko'p kasallanish holatlari 30-40 ulush bilan oktabr - noyabr oylariga to'g'ri kelmoqda.

### **Beshinchidan**

Kasallanish holatlarini yosh guruhlari orasida tarqalishiga e'tibor qaratadigan bo'lsak kasallanish holatlari 86% 11-14 yoshdagi aholi orasida tarqalgan.

### **Oltinchidan**

O'rganilgan 50 ta bemorlarning hech biri kasallik bilan kasallanmagan bu esa vaksina samaradorligiga nisbatan bo'lgan shubhalarimizni yo'qotdi.

### **Yettinchidan**

Farg'ona viloyatida virusli hepatit A kasalligi emlash qabul qilinishi deyarli har yili o'tkangi yillarning xuddi shu davriga nisbatan 50% ga oshmoqda. Kasallikning asosan 6-10 yoshdagi bolalarda ko'proq kuzatilayotgani va emlashga jalb etilayotgan bolalarning aksariyat 3-4 yosh oralig'ida ekanligini inobatga olsak kelgusi yillarda bu kasallik bilan kasallanishlar sonida kamayish kuzatilishi mumkin.

### **Xulosa va Takliflar**

Virusli hepatit A kasalligi O'zbekistonda jiddiy sog'liqni saqlash muammosi sifatida mavjud bo'lib, uning tarqalishi, ayniqsa yosh bolalar orasida sezilarli darajada o'smoqda. Kasallikning oldini olishning eng samarali usuli — bu vaksinatsiya, va O'zbekiston hukumati tomonidan amalga oshirilgan vaksinalash tadbirlari kasallikni kamaytirishga muhim hissa qo'shmoqda. Biroq, sanitariya sharoitlarini yaxshilash, tibbiy nazoratni kuchaytirish va aholini vaksinatsiya qilishda faol ishtirok etishga chaqirish hamda bilimlarni oshirish zarur.

Shuningdek, ilgari olib borilgan tadqiqotlar, jumladan, Farg'ona viloyati misolida olib borilgan izlanishlar, virusli hepatit A ning tarqalishining yosh, jins va mavsumiy xususiyatlarini aniqlashga yordam bermoqda. Kelajakda ushbu kasallikka qarshi kurashishda raqamli texnologiyalarni, statistik tahlillarni va ilmiy izlanishlarni kengroq qo'llash zarur. O'zbekiston, shuningdek, global

miqyosda virusli gepatit A ning oldini olishga qaratilgan tadbirlarda faol ishtirok etishi lozim.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

1. A Zakirxodjayev „Yuqumli kasalliklar“ cho‘lpon nomidagi nashriyot uyi.99- bet
2. Abu-Madi MA, Behnke JM, Ismoil A, Al-Olaqi N, Al-Zaher K, El-Ibrohim R. Qatarda yangi kelgan va doimiy ishchilarda ichak parazit infeksiyasini solishtirish. Parazit vektorlari. 2011;4:211. <https://doi.org/10.1186/1756-3305-4-211>.
3. Alves VAF. O‘tkir virusli gepatit. In: Saxena R, ed. Amaliy jigar patologiyasi: diagnostik yondashuv. 2-nashr. Filadelfiya, Pensilvaniya: Elsevier; 2018: 13-bob.
4. Anthony E.Fiore, Beth P.Bell, in Feigin and Cherry’s Textbook of Pediatric Infectious Diseases (Sixth Edition), 2009
5. Baba M, Hasegawa H, Nakayabu M, Fukai K, Suzuki S. Cytolytic activity of natural killer cells and lymphokine activated killer cells against hepatitis A virus infected fibroblasts. J Clin Lab Immunol. 1993;40:47–60. [PubMed] [Google Scholar].
6. World Health Organization. Global progress report on HIV, viral hepatitis and sexually transmitted infections, 2021. Available at: <https://www.who.int/publications/i/item/9789240027077>